

## TURKUM DOSTONLARNING YUZAGA KELISHI

**Soatova Shahnozabonu Farhod qizi**

*Muhammad al-Xorazmiy nomidagi ixtisoslashtirilgan maktab Guliston filiali ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi: shahnozasoatova7@gmail.com .Tel:+998995362904*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada turkum va turkumlilik, ularning turlari, badiiy adabiyotdagi o'rni va o'ziga xos jihatlari tahlil qilingan. Bundan tashqari, "Oshiqnoma" turkum dostonlari "Go'ro'g'li", "Hasanxon" turkumidagi dostonlar bilan qiyosiy o'rganilganligi, "Asil va Karam" hamda "Asilxon" dostonlari esa o'zaro muqoyasa etilgan emasligi, ikki dostondagi badiiy talqinning o'ziga xosligi, turkumning boshqa turkum dostonlardan asosiy farqli va o'xshash jihatlari, ushbu dostonlardagi obrazlar tasvirini takomillashgani bilan bog'liq masalalarni o'rganish, motivlar tizimini shakllantirish, shubhasiz, adabiyotshunoslikni yangicha ilmiy qarashlar bilan boyitishi ta'kidlangan.*

**Kalit so'zlar:** *"Asil va Karam" dostonining o'rganish masalalari, fojaviylikning dostondagi ahamiyati, romantik dostonlarning o'ziga xos xususiyatlari, obrazlar parallelizmi.*

**Abstract:** *This article analyzes the series and series, their types, their place in fiction and their specific aspects. In addition, it is emphasized that the epics of the "Oshiqnoma" series were studied comparatively with the epics of the "Gorughli" and "Hasankhan" series, while the epics of "Asil va Karam" and "Asilkhan" were not compared, the uniqueness of the artistic interpretation in the two epics, the main differences and similarities of the series from other epics, the study of issues related to the improvement of the image of characters in these epics, the formation of a system of motifs, undoubtedly enriches literary studies with new scientific views.*

**Keywords:** *Research issues of "Asil and Karam" epic, the importance of tragedy in the epic, special features of romantic epics, parallelism of characters.*

O'zbek xalqi o'zining boy va beqiyos epik merosiga ega. Bu ulkan meros asrlar davomida xalqning ma'naviy g'ururi sifatida kishilarni mehnat qilishga, sevgi va sadoqatni, do'stlikni qadrlashga da'vat etadi. O'zbek xalqi eposining kattagina qismini "Go'ro'g'li" va "Oshiqnoma" turkumiga mansub dostonlar tashkil etadi. "O'zbek tilining izohli lug'ati" da turkum so'ziga bir-biriga bog'liq bo'lgan, bir butunni tashkil etgan bir necha asar, deb izoh berilgan. Umuman olganda, "Turkum – mushtarak g'oyaviy niyat, umumiy mavzu, qahramon va muayyan kompozitsion yaxlitlikka ega bo'lgan badiiy asarlar majmuidir"<sup>15</sup>. Turkumlik ijtimoiy voqelikka xos hodisa hisoblanib, tabiat va jamiyatdagi barcha narsalar mohiyati, shakli va xususiyati jihatidan muayyan guruhlarni, turkumlarni tashkil etadi. Badiiy ijoddagi turkumlikda esa ma'lum guruhdagi asarlarni, muayyan qahramonlarni yoki mavzu umumiyliги jihatidan o'zaro birikib turadi.

<sup>15</sup> O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. 8-jild. – T.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2004. – B. 670.

“Muayyan janr doirasidagi birdan ortiq mustaqil dostonlarning yo mavzu, yo qahramon, yo epik joy, yo muayyan g’oya va tasvirlangan voqealar xronologiyasi jihatidan guruhlanishiga turkum deyiladi”<sup>16</sup>. “Go’ro’g’li” nomi bilan bog’langan qirqdan ortiq dostonlar o’zbek xalq dostonchiligida muayyan turkumni tashkil etadi. Xalq ijodining mahsuli bo’lgan har bir qo’shiq, har bir doston o’zi yaratilgan davr hodisasini aks ettirib avloddan-avlodga, og’izdan-og’izga o’tib, muayyan tarixiy sharoitga mos epizodlar bilan boyib kengayib, mukammallashib boraveradi. Har bittasi 3-4 ming satrdan tortib, to 10-12 ming satrgacha she’rni o’z ichiga olgan “Go’ro’g’li” yoki “Oshiqnoma” dostonlarining barchasini birdaniga tinglashni tasavvur etib bo’lmaydi. Turkum dostonlarning hammasini uzmasdan aytish uchun necha kecha-kunduz vaqt kerak. Mana shu obyektiv ijtimoiy zaruriyat dostonchilikda ma’lum g’oya va voqelikka asoslangan epik syujet negizida har qaysisi o’zicha mustaqil bir qator doston yaratilishini taqozo etgan. Haqiqatan ham, muayyan epik qahramon hayoti “Bir kechada aytib tugatish mo’ljali” ga ko’ra, bir necha alohida-alohida, har qaysisi mustaqil dostonlarning yaratilishiga sabab bo’lgan. Bu hol o’z navbatida xalq dostonchiligida turkumlilikni vujudga keltirgan. M.Mirzayeva xalq dostonlaridagi turkumlilikni quyidagi turlarga bo’lib ko’rsatadi:

1. Geografik;
2. Biografik;
3. Tarixiy;
4. Nasliy<sup>17</sup>

Geografik turkumlilikda epos namunalari voqealarning qaysi geografik joy bilan bog’liq ekanligiga qarab birlashadi. “Oshiqnoma” turkumi tarkibidagi dostonlar geografik turkumlilikning yorqin namunasidir. M.Mirzayevaning fikricha o’zbek xalq eposida geografik turkumlilik nasliy va biografik turkumlilikka qaraganda yaxshi rivojlanmagan. U buning sabablarini quyidagicha izohlaydi: “O’zbek xalq eposini yaratuvchi ko’chmanchi o’zbek urug’larining ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy hamda madaniy hayoti tarixan muayyan geografik joy bilan bog’liq bo’lmagan. Uning butun hayoti Dashti qipchoqdan tortib Bobo tog’ etaklarigacha bo’lgan keng geografik territoriyada o’tgan. Biroq shunga qaramay, o’zbek eposida real geografik epos yaratilmagan. Buning asosiy sababi esa o’zbek xalq eposining o’ziga xos epik traditsiyasiga tayanishligidadir. Bu traditsiya esa butun ko’chmanchi va yarim ko’chmanchi o’zbek urug’larining orzu-istaklari Chambil, Ko’hi Qof kabi epik joylar bilan bog’liq ekanligidadir”<sup>18</sup>.

O’zbek xalq dostonchiligida tarixiy turkumlilik turkumlilikning boshqa turlariga, xususan, biografik va nasliy turkumlilikka nisbatan asosiy o’rin tutmaydi. Buning sababi xalq hayotida muhim tarixiy voqealarning ko’p va tez sodir bo’lishi va uning bir baxshi repertuaridan boshqa baxshi repertuariga o’tishga ulgurmasligidir.

<sup>16</sup> Mirzayeva M. O’zbek xalq dostonlarida turkumlilik. – T.: 1985. – B. 8.

<sup>17</sup> Mirzayeva M. O’sha manba. – B. 11.

<sup>18</sup> Mirzayeva M. O’zbek xalq dostonlarida turkumlilik. – T.: 1985. – B.13.

Bir epik qahramon hayoti, uning epik sarguzashtlari bilan bog'liq har biri tugal syujet qurilishiga, tugal g'oyaviy-badiiy qimmatga ega bo'lgan mustaqil asarlar zanjiriga biografik turkumlik deyiladi<sup>19</sup>. Ma'lumki, xalq o'zining sevimli qahramoni bajarishi lozim bo'lgan ishlarni har tomonlama tasvirlanishini talab etadi. Mana shu ijtimoiy talabni qondirish xalq dostonchiligida turkumlikni vujudga keltiruvchi asosiy omil bo'lib xizmat qiladi. Biografik turkumlikda bosh qahramonning hayoti, faoliyati, uning bir odam bajara olishi mumkin bo'lgan ishlari tasvirlanadi. Biografik turkumlik doirasi nisbatan keng bo'lib, unga yana epik qahramonga har bir ishda ko'maklashuvchi bahodir yigitlar bilan bog'liq dostonlar ham mansubdir. Chunki bu xildagi dostonlarda ham epik qahramon yo bevosita ishtirok etadi yoki o'sha dostondagi voqealar epik qahramon nomi bilan bog'liq bo'lib, uning biografiyasini u yoki bu tomondan to'ldiradi. Mana shularning barchasi biografik turkumlik doirasini kengaytiradi.

M.Mirzayeva nasliy turkumlikni vujudga kelishi haqida yozar ekan, "Avazxon" nasliy turkumiga oid dostonlarda Go'ro'g'lining epik biografiyasiga tegishli ma'lumotlar ham mavjud, bu ma'lumotlarsiz Go'ro'g'li biograafiyasini to'la-to'kis tasavvur qilib bo'lmaydi, deb yozadi. Turkumlikning bu turi turkiy xalqlar eposida keng tarqalgan bo'lib, u bevosita biografik turkumlilik rivoji, yuksak darajaga erishishi natijasida yuzaga keladi. Buni akademik V.M.Jirmunskiyning quyidagi fikri ham tasdiqlaydi: "Nasliy turkumlik biografik turkumlikni davom ettiradi. Tinglovchining epik qahramon taqdiri bilan jonli qiziqishi, baxshilarning qahramonning ilk epizodik jasoratlarini, uning hayotida ro'y bergan barcha voqealar – g'ayritabiiy tug'ilishdan tortib o'limiga qadar bo'lgan voqealarni o'z ichiga qamrab olgan butun bir epik biografiyaga birlashtirishga undaydi. Bu dostonlarni yaratishda oldingi eposning keng tarqalgan motivlaridan qisman foydalaniladi"<sup>20</sup>. Nasliy turkumlik dunyo xalqlari orasida keng tarqalgan bo'lib, barcha xalqlarning epik ijodida bunga misollar ko'p. Nasliy turkumlik o'z mohiyati jihatidan har bir xalqning eposi qay darajada uzoq taraqqiyot jarayonini bosib o'tganligini ko'rsatib beradi. Biografik va nasliy turkumlikmimg yuzaga kelishi haqida hozirga qadar yagona fikrga kelinmagan. Bu ikki turkumlikning yuzaga kelish tamoyillari va turkumlikni tashkil etuvchi mustaqil dostonlarning yaratilish yo'llarini bir-biri bilan aralashtirib yubormaslik kerak. Ma'lumki, epos xalq tarixining ko'zgidir. Bu ko'zguda xalqning dunyoqarashi, turmush tarzi, urf-odatlar va uning ideali aks etadi. Boshqa xalqlar qatori o'zbek xalq eposida ham xalq ideali asosan uning bosh qahramoni xarakteridan aks etadi. Birgina epik qahramon hayotining davomiyligi, xalq ommasining voqelikni estetik aks ettirishdagi davomiylikka ta'sir ko'rsatadi. Chunki xalq o'z eposiga o'z tarixi sifatida qarab, unga jiddiy yondashadi. Natijada, muayyan epos va uning epik qahramoni bilan bog'liq asarlar yuzaga kela boshladi. Mana shu tariqa xalq ideali va u bilan bog'liq holda epik hayot ham o'zining davomiyligini ta'minlay oldi. Davomiylikning kuchli

<sup>19</sup> Mirzayeva M. O'sha manba. – B. 15.

<sup>20</sup> Жирмунский В. Тюркский героический эпос. – М., 1974. – С. 92 -93.

darajada yuz berishi esa boshqa epik qahramon va u bilan bog'liq sarguzashtlarni keltirib chiqaradi.

Biografik hamda nasliy turkumlikning yuzaga kelishidagi asosiy harakatlantiruvchi kuch xalqning o'z sevimli qahramonlari hayotiga, sarguzashtlariga qiziqish ekan, mana shu talabni qondirish maqsadida xalq ijodkorlari – baxshilar yangi-yangi dostonlar yaratadi. “Xalq dostonchiligida mutlaqo yangi syujetning vujudga kelishi mushkul ish. Shuning uchun xalq og'zaki badiiy ijodiyotida, ko'pincha, mavjud syujet motivlaridan mohirona foydalanib, yangi doston to'qilib, bu syujet sevimli qahramon hayoti bilan bog'lanadi. Turkumlikni vujudga keltiruvchi navbatdagi yangi doston shu tariqa yuzaga keladi”<sup>21</sup>. O'zbek xalq og'zaki badiiy ijodiyotining o'ziga xos tomonlari dostonchilikdagi mana shu turkumlikda ham o'z ifodasini topgan. Shuni ham ta'kidlab o'tish kerakki, xalq eposida aka-uka, ota-bola, do'st tutinish motivlari qahramonning kuch-quvvatiga, zo'rligiga tan berish, unga bo'ysunish kabi o'ta qadimgi hayotiy ehtiyojlar bilan bog'liq bo'lgan. Bu narsani Alpomish bilan Qorajon o'rtasidagi do'st tutinish motivida, shuningdek, “Go'ro'g'li” dostonlarida ham ko'rish mumkin. Xalq dostonlarida aka-uka tutinish odatda ikki yo'l bilan: birinchisi – bosh qahramonning onasi begona bahodir bolani emizadi, shundan so'ng u emikdosh uka bo'lib qoladi. Ikkinchisi – bo'lajak aka-ukalar yakkama-yakka kurashda bir-biriga har jihatdan teng keladi yoki bir ikkinchisini yengib, olijanoblik, himmat ko'rsatish yo'li bilan ro'y beradi. Ota-bola tutinish voqeasi esa “Go'ro'g'li” turkumiga kiruvchi “Hasanxon” dostonida ancha asosli va ishonarli qilib berilgan. Bu azaliy urf-odat, an'analirimizdan kelib chiqadi. Shuning uchun ham bu motiv ushbu doston syujetiga singib ketadi. “Xalq og'zaki badiiy ijodining yuksak professional san'at turi doston bo'lib, u kompozitsion va syujet qurilishi jihatidan murakkab voqea va hodisalar mazmunan qahramonlik xarakteriga ega bo'lib, ular yakka shaxs – xalq idealidagi bahodir atrofiga birlashtiriladi”<sup>22</sup>. “Hasanxon” yoki “Go'ro'g'li” dostonlarining qiyosiy tahlillariga e'tibor qaratilsa, o'zbek xalq poetik ijodida doston murakkab san'at ekanligiga yana bir bor guvoh bo'lish mumkin.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Sarimsoqov B. O'zbek xalq poetik ijodi. – Toshkent. O'qituvchi nashriyoti. 1990.
2. Sariyev S. Xorazm “Go'ro'g'li” dostonlarining qo'lyozma variantlari. F.f.d. diss. 2007.
3. Sobirova N. Xorazm “oshiq” turkumi dostonlari syujeti, yetakchi motivlari va obrazlar tizimining mifologik asoslari: f.f.n.diss.avtoref. – Toshkent, 2004.
4. Turdimov Sh. Go'ro'g'li dostonlarining genezisi va tadrijiy bosqichlari. F.f.d. diss. – 2011.

<sup>21</sup> Mirzayeva M. O'zbek xalq dostonlarida turkumlilik. – T.: 1985. – B. 13.

<sup>22</sup> Mirzayev T. Xalq baxshilarining epik repertuari. – Toshkent, 1979. – B. 91.

5. Xorazm xalq dostonlarining spetsifikasi, tipologiyasi va poetikasi. F.f.d. diss. – Toshkent, 1990.

6. Xorazm xazinasasi. To'plovchi: Sobir Ehsan Turk; nashrga tayyorlovchi K.Nurjonov. – Urganch, 1996.